

МАКТАBLARDA O'QUVCHILARNI GEOGRAFIYAGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH

Karimova Saboxat Xamroyevna

Urganch tumani 9-sonli maktab geografiya fani o'qituvchisi

Normatova Hilola Rashidovna

Urganch tumani 44-maktab 2-toifali geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktablarda o'quvchilarni geografiyaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'qitish jarayonida pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning bilim, o'quv hamda malaka tizimini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat ekanligi va o'quvchilarni geografiyaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda to'garak mashg'ulotlarining o'rni haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: geografiya fani, metodik nazariya, to'garak mashg'ulotlari, pedagogika.

Kirish:

Darhaqiqat, hozirgi kunda jamiyatimiz uchun har taraflama takomillashgan, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq qila oladigan yetuk kasb egalarini tayyorlash masalasi turibdi. Ushbu masalani hal qilishda to'garakni tashkil qilish metodikasi fanining o'rni muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa o'quvchilarni geografiyaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda to'garak ishlarini tashkil qilishning muhim maqsadi, bo'lajak to'garak tashkilotchisiga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim tarbiya, shuningdek tanlagan geografiya bo'yicha boshlang'ich kasb-hunar to'g'risida tushuncha berish, ko'nikma hosil qilishni o'rgatishdan iborat hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi.

Geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishda to'garak mashg'ulotlarida o'tiladigan metodik nazariy, metodik masalalar, tadqiqot usullari juda ham qo'l keladi. Bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning geografiya fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda to'garakning quyidagi metodikasi samarali ish berishi mumkin;

-tabiiy geografiyani o'qitish;

-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'rgatish;

- fazoviy tasvirni rivojlantirish;
- geografik bilimlar ustida amaliyot o'tkazish;
- o'z-o'zini takomillashtirish;
- o'quv faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirish;

Natijalar:

O'qitish jarayonida maktablardagi to'garak mashg'ulotlarida geografiya fanini qiziqtirish va rivojlantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish masalasi katta ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Fan va texnikaning aniq turlari qishloq xo'jaligi texnikalari bo'yicha o'quvchilar ijodiy harakatini faollashtirish -umumta'lim predmetlari, geografiya ta'limi o'qituvchilari va to'garak rahbarlari eng muhim vazifasidir, chunki qiziqishlar bo'yicha amalga oshiriladigan ana shu faoliyat geografiyaning boshqa formalari bilan uzviy bog'liq holda shaxsni uyg'un shakllantiradi. O'qituvchilar va to'garak rahbarlarining ilg'or ish tajribasini o'rganish, umumlashtirish hamda tatbiq qilish doimo pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Muhokama:

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fani yuzasidan uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlarni yuqorida bayon etilgan shaklda olib borishda ishning mazmuniga qarab turli usullardan foydalaniladi. Vaholanki, bajariladigan ishning mazmuni, shakli va qo'llaniladigan metodlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlarining bir butun holda olib borishni ta'min etadi.

Geografiya fani o'qituvchilari va to'garak rahbarlari o'quvchilarning qiziqishlarini shakllantiruvchi mashg'ulotlarni tanlashga, shuningdek o'quvchilar mehnatini moddiy texnik jihozlashga oldindan sinchiklab tayyorlanishi zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'qitish o'qituvchining o'quvchilarga bilim, o'quv va malaka tizimi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatdir. Maktablarda o'quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda kasbiy bilim berishning eng asosiy vositasi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abirqulov K.N. Iqtisodiy geografiyasi. Darslik. -T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2008.
2. Alisov N. V., Khoree B. S. Iqtisodiy va ijtimoiy dunyo geografiyasi. - M., 2001.
3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Nabiyeva M.K. Ta'lim sifatini ommaviy tekshirish metodikasi geografiya. M., Ma'rifat, 2004.